XALQ DEPUTATLARI OHANGARON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-19-97-10-134-K/25 Ohangaron tumani

Ohangaron tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 6-dekabrdagi 2-4-1161-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Ohangaron tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Ohangaron tumani byudjetining 2026-yilgi daromadlari **108,6 mlrd. so‘m** va xarajatlari esa **108,6 mlrd. so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **0,0 mlrd. so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Ohangaron tumani byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **430,5 mln. so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2026-yilda

hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Ohangaron tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 222,526 mln. so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar muvofiq tasdiqlansin.

- yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 5-ilovaga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 6-ilovaga muvofiq;

Ohangaron tumani deputatlari Kengashiga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 7-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 8-ilovaga muvofiq;

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari D. Sadulayev, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S. Qo‘chqarov), tuman soliq inspeksiyasi (A. Mo‘minov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Ohangaron tumani Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari” doimiy komissiyasi (N. Raxmanova) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari D. Sadulayev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **KUCHIMOVA SHAHLO XATAMOVNA**

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-97-10-134-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Ohangaron tumani mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

№	Daromad turlari	Ohangaron tumani
	JAMI	**108 129 440**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	3 073 400
2	Foyda solig‘i	727 200
3	Aylanmadan olinadigan soliq	1 551 120
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 810 880
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	2 082 000
	Aksiz solig‘i jami	1 262 580
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*1 262 580*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 387 700
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	8 673 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4 562 800
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	27 619 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	31 960 320
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	11 130 200
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	2 957 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-1 182 800
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	2 307 360

15	Yig‘imlar	673 120
16	Jarimalar	3 908 760
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	400 000

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-97-10-134-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Ohangaron tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Ohangaron tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**108 129 440**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	*33 106 150*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*3 399 000*
2	Madaniyat bo‘limi	*3 376 425*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*2 960 333*
4	Sport bo‘limi	*5 454 671*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 595 777*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 174 197*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*1 376 873*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 328 770*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*0*
10	Hokimiyat	*34 089 429*
	shundan:	*0*
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*0*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0*
	Madaniyat bo‘limi	*0*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*0*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*19 706 589*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 111 803*

	Zaxira jamg‘armasi	*1 222 526*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*650 190*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*650 190*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	20 016 625
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Ohangaron tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-97-10-134-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Ohangaron tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

№	Hududlar nomi	Qo'shilgan qiymat solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Foyda solig'i	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Pivo	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Aylanmadan soliq	Davlat boji	Jarima	Yig'imlar
		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar	Tuman (shahar)lar	Tuman (shahar)lar	Tuman (shahar)lar

		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB		
1	Ohangaron tumani	0%	5%	0%	8%	100%	100%	0%	3%	0%	0%	0%	0%	0%	3%	0%	10%	0%	10%	68%	100%	100%	100%	0%	0%	24%	22%	6%	28%

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-97-10-134-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 gektar uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (ming so‘mda)
1	Alisher MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76
2	Chetsuv MFY	0,80	36 540,0	0,80	329,28
3	Chinor MFY	0,80	36 540,0	0,80	329,28
4	Chuvildoq MFY	1,05	47 958,8	1,05	432,18
5	Eyvalek MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76
6	G‘allaquduq MFY	0,80	36 540,0	0,80	329,28
7	Gulobod MFY	0,80	36 540,0	0,80	329,28
8	Go‘shsoy MFY	0,90	41 107,5	0,90	370,44
9	Ilg‘or MFY	1,05	47 958,8	1,05	432,18
10	Qiziloy MFY	1,15	52 526,3	1,15	473,34
11	Qorasuvyoqa MFY	1,05	47 958,8	1,05	432,18
12	Ko‘ksaroy MFY	0,80	36 540,0	0,80	329,28

13	Quyun MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76
14	Nurobod MFY	1,50	68 512,5	1,50	617,40
15	Ovjazsoy MFY	1,05	47 958,8	1,05	432,18
16	Oybuloq MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76
17	Qaroxitoy MFY	1,30	59 377,5	1,30	535,08
18	Sanam MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76
19	Shodmalik MFY	0,80	36 540,0	0,80	329,28
20	Shovg‘oz MFY	1,05	47 958,8	1,05	432,18
21	Susam MFY	1,05	47 958,8	1,05	432,18
22	Telov MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76
23	Toshariq MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76
24	Tut MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76
25	Ubayd MFY	1,05	47 958,8	1,05	432,18
26	Ungut MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76
27	Uvak MFY	1,05	47 958,8	1,05	432,18
28	Yalpoqtepa MFY	1,30	73 515,0	1,30	662,48
29	Yangihayot MFY	1,05	36 540,0	1,05	329,28
30	Yangiobod MFY	1,10	52 635,0	1,10	474,32
31	Yonariq MFY	1,10	52 635,0	1,10	474,32
32	O‘zbekiston MFY	1,30	59 377,5	1,30	535,08
33	Ozodlik MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76

34	Sartamg‘ali MFY	1,10	50 242,5	1,10	452,76

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-97-10-134-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar boʻyicha mol-mulk soliqlari uchun qoʻllaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent
1	Ohangaron tumani	1,00

Xalq deputatlari Ohangaron tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-97-10-134-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Ohangaron tumani	1,05	1,05	1,05	1,05	1,00

Xalq deputatlari Ohangaron tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-97-10-134-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Ohangaron tumani	1,10	1,13	1,15	1,15	1,10	1,13	1,15	1,15

Xalq deputatlari Ohangaron tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-97-10-134-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	**Tuman va shahar nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktosh bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Ohangaron tumani	1,30	1,30	1,30	1,30	1,30	1,36	1,36